



## ROLE OF PARTIES' AUTONOMY IN THE MAKING OF INTERNATIONAL ARBITRATION AGREEMENTS

Xatamjonova Gulsanam Yasharjon qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Master student at Tashkent state university of law

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4737917>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2021  
Accepted: 25<sup>th</sup> April 2021  
Online: 30<sup>th</sup> April 2021

### KEY WORDS

International commercial arbitration, party autonomy, arbitration agreement, parties of an arbitration agreement, autonomy and validity requirements of arbitration agreements.

### ABSTRACT

International commercial arbitration is an alternative dispute settlement based on the principle of party autonomy. Parties' autonomy and their will are crucial in International commercial arbitration. Arbitration processes begin only when parties agree to start processes. Parties fulfill their autonomy by drafting an arbitration agreement to resolve their current or future disputes. Drafting an arbitration agreement is the first step to realize parties' autonomy in International commercial arbitration. Briefly, arbitration agreements are guarantees to commence arbitration processes whenever there is a dispute between parties.

## XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA ERK MUXTORIYATI (PARTY AUTONOMY) PRINSIPINING ARBITRAJ KELISHUVLARINI TUZISHDAGI AHAMIYATI

Xatamjonova Gulsanam Yasharjon qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021  
Ma'qullandi: 25-aprel 2021  
Chop etildi: 30-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

Xalqaro tijorat arbitraji, erk muxtoriyati (Party autonomy), arbitraj kelishuvi, arbitraj kelishuvi taraflari, avtonomiya, arbitraj kelishuvining haqiqiylik talablar.

### ANNOTATSIYA

Xalqaro tijorat arbitraji taraflarning xohishlaridan vujudga kelgan nizolarni muqobil hal etish vositasidir. Bunda taraflarning xohish va irodalari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Aynan shu taraflarning xohishlari arbitraj jarayonlari boshlanishiga turtki bo'ladi. Nizolashuvchi taraflar yoki nizo yuzaga kelishi mumkinligi bois taraflar o'zlarining arbitraj jarayonlarini tashkil etishga bo'lgan irodasini kelishuv shaklida, aniqroq aytganda Arbitraj kelishuvi shaklida namoyon etadilar. Xalqaro tijorat arbitraji doirasida ishtirokchilar o'zlarining dastlabki avtonomiyalarini arbitraj kelishuvi tuzib realizatsiya qiladilar. Shu boisdan ham arbitraj kelishuvlari arbitraj jarayonlari boshlanishining birinchi qadami hamda garovi bo'lib hisoblanadi.



Arbitraj kelishuvlarining pozitsiyasi va ahamiyatini belgilash erk muxtoriyati (party autonomy) prinsipining qamrovi va rolini aniqlash uchun muhimdir, negaki aynan arbitraj kelishuvlari arbitraj jarayonlarining eng ahamiyatli elementi hisoblanadi va o'zida taraflarning avtonomiyasini aks ettiradi. Shu sababli ham Okezie Chukwumerije o'zining "Xalqaro tijorat arbitrajida tanlov huquqi" deb nomlangan kitobida *arbitraj kelishuvlarini taraflarning dastlabki avtonomiyasi* sifatida baholagan. [1, B.10] Bu avtonomiya taraflarning birinchi bosqichdayoq o'zlarining nizolarini sudlar orqali hal etish huquqlaridan voz kechganligi bilan namoyon bo'ladi. Faqatgina arbitraj kelishuvi taraflarning sud orqali nizolarni hal etish huquqlaridan voz kechganliklarini aks ettiruvchi hujjat bo'la oladi. Aynan shu hujjat asosida arbitraj kelishuvini tuzuvchilar o'zlarining nizolarini mustaqil yo'l bilan tashkil etiladigan arbitraj orqali ko'rish huquqini qo'lga kiritadilar. Keyinchalik taraflarning xohishlari asosida arbitraj kelishuvlari arbitraj protsesslarining qanday borishini yo'naltirib turuvchi hujjatga aylanishi mumkin. Ya'ni, arbitraj kelishuvlari tuzilib bo'lganidan so'ng arbitraj jarayonlari boshlanishi bilan protseduraviy xususiyatlarini o'zida namoyon eta boshlaydi. Arbitraj kelishuvi va arbitraj kelishuvining shartlari arbitraj jarayonlarining qanday borishi uchun dastur vazifasini o'tay boshlaydi. Shu boisdan arbitraj kelishuvi arbitraj jarayonlari boshlangunicha taraflarning irodasini namoyon etuvchi hujjat, arbitraj jarayonlari boshlangandan so'ng esa arbitraj jarayonlarining protseduraviy harakterini belgilovchi dastur tabiatiga ega bo'ladi. Arbitraj kelishuvlari arbitraj jarayonlarining har bir bosqichida o'z ahamiyatiga ega.

Har qanday sharoitda ham har bir arbitraj jarayoni milliy yoki xalqaro bo'lishidan qat'i nazar, arbitraj kelishuvi bilan boshlanadi. Shu sababli Manchester huquq

universiteti professori Nadia Ramzy Salama o'zining "Xalqaro tijorat arbitraj kelishuvlarining tayyorlanishida erk muxtoriyatining tabiati, qamrovi va roli" kitobida *arbitraj kelishuvlarini boshlovchi bo'g'in* sifatida ta'riflaydi. [2, B.25]

Arbitraj taraflarning xohishlaridan vujudga kelgan xususiy sud yuritish tartib-tamoyilidir. Bunda taraflarning xohish va irodalari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Aynan shu taraflarning xohishlari arbitraj jarayonlari boshlanishiga turtki bo'ladi. Nizolashuvchi taraflar yoki nizo yuzaga kelishi mumkinligi bois taraflar o'zlarining arbitraj jarayonlarini tashkil etishga bo'lgan irodasini kelishuv shaklida, aniqroq aytganda Arbitraj kelishuvi shaklida namoyon etadilar. Xalqaro tijorat arbitraj doirasida ishtirokchilar o'zlarining dastlabki avtonomiyalarini arbitraj kelishuvi tuzib realizatsiya qiladilar. Ayni shunday xususiyatlari sabab ham arbitraj kelishuvlari arbitraj jarayonlari boshlanishining birinchi qadami hamda garovi vazifasini bajara oladi.

Arbitraj kelishuvlarining huquqiy ta'rifi ko'plab xalqaro konvensiyalar yoki milliy qonunchilik tomonidan keltirilgan. Berilgan ta'riflarning ko'pi bir-biriga o'xshash yoki aynan bir –birini takrorlaydi. Bu takroriylik arbitraj kelishuvini tuzuvchilar mustaqil ekanliklari, kelishuvlarida o'zlarining irodasini namoyon eta olish erkinligi mavjudligida namoyon bo'ladi. Misol uchun UNCITRAL Model Law ning 7 – moddasida arbitraj kelishuvlariga quyidagicha ta'rif berilgan:

*Aniq bir huquqiy munosabatlar doirasida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning hammasini yoki ayrim qismini arbitrajga topshirish to'g'risidagi taraflarning kelishuvidir. Arbitraj kelishuvlari asosiy shartnomaning bir qismi sifatida yoki alohida shartnoma sifatida tuzilishi mumkin*



1994 – yilda qabul qilingan Misr Arbitraj Kodeksi esa arbitraj kelishuvlariga mana bunday ta’rif keltirgan:

*Shartnomaviy munosabat yoki shartnomaviy munosabat emasligidan qat’i nazar qonuniy asoslarda vujudga kelgan munosabatlar doirasida vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo’lgan nizolarning hammasini yoki bir qismini arbitrajda hal etish uchun taraflarning kelishuvidir*

1997 – yilda qabul qilingan Ingliz Arbitraj Akti arbitraj kelishuvlariga quyidagicha ta’rif keltirgan:

*Kelajakdagi yoki hozirda mavjud bo’lgan nizolarni hal etish uchun taraflarning xohish-irodasini aks ettiradigan kelishuv [3, B.6]*

Ushbu keltirilgan ta’riflarning umumiy jihatlari bir xil, ya’ni kelishuvlar eng kamida ikki taraf o’rtasida tuzilishi, allaqachon vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo’lgani nizolarni ham ko’zda tutishi mumkin bo’lishi, mavjud nizoning barchasini yoki uning bir qismini arbitrajga taqdim etish mumkinligidir. Bu yerdagi yagona farq qiluvchi qoida Misr Qonunchiligida mavjud bo’lib, Misr Qonuni tomonidan ko’riladigan munosabatlar qonuniy asosda vujudga kelishi lozimligi va qonuniy asosda vujudga kelgan bo’lsa, shartnomaviy bo’lmagan munosabatlar ham arbitraj kelishuvining predmeti bo’la olishligi belgilanganligir.

Yuqoridagi ikki ta’rifdan ham to’laroq va mukammalroq ta’rif New York Konvensiyasi tomonidan keltirilgan:

*Arbitrajda ko’rib hal etilishi mumkin bo’lgan mavzudagi qonuniy munosabatlardan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo’lgan, shartnomaviy munosabat yoki shartnomaviy bo’lmagan munosabat, nizolarning hammasini yoki bir qismini arbitrajda ko’rish uchun yozma shaklda tuzilgan yozma kelishuv*

Ushbu ta’rifdan arbitraj kelishuvlari faqatgina arbitraj jarayonlari orqali ko’rib hal qilinishi lozim bo’lgan masalalarni qayd etishi, munosabatlar qonuniy asosda vujudga kelishi va yozma shaklda bo’lishi lozimligini tushunamiz. Demakki, arbitraj kelishuvlari yozma tarzda tuzilishi lozim va og’zaki kelishuvlarga asoslanib arbitraj jarayonlarini boshlash mumkin emas.

O’zbekiston Respublikasining “Xalqaro Tijorat Arbitraji to’g’risida”gi Qonunining 12 –moddasida arbitraj kelishuvi quyidagicha ta’riflangan:

*Taraflarning shartnomaviy xususiyatga egaligidan yoki ega emasligidan qat’i nazar, biror-bir aniq huquqiy munosabat bilan bog’liq bo’lgan, ular o’rtasida yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo’lgan barcha yoki muayyan nizolarni arbitrajga topshirish to’g’risidagi kelishuvi arbitraj kelishuvi hisoblanadi. Arbitraj kelishuvi shartnomaning arbitraj sharti yoki alohida kelishuv tarzida tuzilishi mumkin*

O’zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to’g’risida” Qonunining keltirgan ta’rifi kelishuvlar uchun eng asosiy elementlarni qayd etish uchun asosiy tushunchalarni keltirib, arbitraj kelishuvlari tuzilishi uchun munosabatlar qonuniy asosda vujudga kelishining o’zi yetarli ekanligini belgilab qo’ygan.

Dastlabki davrlarda milliy sudlarning arbitraj sudlari o’tkazish jarayonlari va arbitraj kelishuvlarining rad etilishi ustidan vakolati juda yuqori bo’lib, istalgan arbitraj kelishuvini davlat siyosatiga zid deya bekor qilish huquqi mavjud bo’lgan. Hattoki ayrim holatlarda qonuniy bo’lgan arbitraj kelishuvlari asosida qabul qilingan arbitraj qarorlari ham ijrosiz qolish holatlari kuzatilgan. Ba’zan esa arbitraj qarorlari boshqa hududlarda ijro etilishi lozim bo’lgan holatlarda arbitraj qarorlarini davlat Qonunlariga zid deb bajarmaslik holatlari ham mavjud bo’lgan. [4, B 112]



## *Arbitraj kelishuvlarining tabiati.*

Umumiy qoida sifatida arbitraj kelishuvlari protseduraviy tabiati mavjud. Ya'ni arbitraj kelishuvlari taraflar o'rtasidagi huquqni belgilmasdan, balki taraflar o'rtasida nizoni hal qilishning protseduralarini belgilaydi. Bunda taraflar nizolarni hal qilishning vositalari, hal qilish uchun usullar va nizo uchun yechim mexanizmini yaratadilar. Bir so'z bilan aytganda, taraflar mustaqil arbitraj sudlari qanday tartibda amalga oshirilishi qoidalarini belgilaydilar. Shuning uchun Laurence Shore o'zining "Arbitrajga taalluqlilikni belgilash" maqolasida arbitraj kelishuvlariga quyidagicha ta'rif keltiradi:

*Arbitraj kelishuvlari shunchaki mustaqil individlarning kelishuvi emas, balki ommaviy huquq subyektlarining protseduraviy kelishuvidir*

Arbitraj kelishuvlari asosiy shartnomaning bir qismi sifatida keltirilganda ham, o'zining protseduraviy xarakterini bilan ajralib turadi va asosiy shartnomaning umumiy xususiyatidan farqlanadi. Asosiy shartnomadan ham mustaqil deb qaraladi. Asosiy shartnoma bekor qilinganda, arbitrajga doir shartnomaning qismi o'z kuchini yo'qotmaydi. Shuning uchun ushbu turdagi kelishuvlar asosan o'tkaziladigan arbitraj jarayonlariga taalluqli bo'ladi va asosiy shartnomaning bajarilishi bu kelishuvning ham bajarilgan deb hisoblanishiga olib kelmaydi. Asosiy shartnoma va arbitraj kelishuvlari bir-biridan ajratib olinish xususiyatiga ega bo'ladi. Ajrata olish xususiyati mavjudligi shartnomalarning bir-biridan mustaqil shartnoma ekanligini va alohida holatda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmasligini ta'minlaydi. Arbitraj kelishuvlari asosiy shartnomaning bir qismi hisoblanmaydi.

Arbitraj kelishuvi haqiqiy hisoblanishi uchun qo'yiladigan ayrim talablar mavjud. Nafaqat New York Konvensiyasi, balki UNCITRAL Model Law arbitraj kelishuvi

yo'zma shaklda tuzilishi lozim deb hisoblaydi. Har qanday holatda ham taraflar o'zlarining arbitraj o'tkazishga doir kelishuvlarini yozma bayon etishlari va mana shu yozma kelishuv asosida harakatlanishlari lozim. UNCITRAL Model Law yozma tarzda tuzilishni faqatgina qog'ozga tushirilgan holatda deb hisoblamaslik, balki elektronik ma'lumotlar almashinuvi (EDI), elektron e-mail, telegram, telex yoki telecopy orqali almashlangan hujjatlar ham yozma shakl sifatida qabul qilinishini belgilaydi. New York Konvensiyasi esa arbitraj kelishuvlari yozma tuzilib taraflar tomonidan imzolanishini ham talab etadi.

New York Konvensiyasiga asosan, taraflar o'rtasidagi har qanday munosabat Qonuniy bo'lishi lozim. Ya'ni, bu munosabatlar shartnomaviy munosabat hisoblanadimi yoki yo'q, munosabatlar qonuniylikka asoslanishi lozim. Noqonuniy munosabatlar arbitraj kelishuvlarining mavzusi bo'lishi mumkin emas.

New York Konvensiyasi hamda UNCITRAL Model Law talabiga asosan, arbitraj kelishuvlarining mavzusi arbitraj jarayonlari orqali hal qila olish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Bu qoidaning kiritilishiga asosiy sabab – bu arbitraj jamoaviy oqibatlariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etishning xususiy metodi ekanligidir. Ya'ni, har bir davlat qonunlarining o'ziga xosligidan kelib chiqib ayrim masalalar arbitraj bilan hal etila olmasligi mumkin. Umumiy qoida sifatida jinoiy ishlar yoki bankrotlik bilan bog'liq masalalar arbitraj bilan hal etilishi mumkin emas. [5]

Arbitraj kelishuvini tuzuvchilar shartnomaviy munosabatlarga kirishish layoqatiga ega bo'lishi lozim. [6, B. 114] Arbitraj kelishuvlarining tabiati boshqa shartnomalarning tabiatidan farqlanib tursa ham, umumiy o'rnatilgan qoidalarga asosan, shartnoma taraflari muomalaga layoqatsiz, muoamola layoqati cheklangan yoki kichik



yoshdagi shaxslar bo'lmashligi lozim. Ayrim qonunchiliklar ushbu talablar tashqari, davlat korxonalarining ayrim doiradagi faoliyatlari yuzasidan arbitrajga murojaat qilishini va davlat ulushi mavjud bo'lgan tashkilotlarning faoliyatini arbitraj orqali hal etib bo'lmashligi qoidalarini ham keltirishgan. Taraflarning shartnomaviy munosabatlarga kirisha olish layoqatiga ega bo'lishi fundamental talab bo'lib ko'plab xalqaro Konvensiyalar va milliy Qonunchilik tomonidan majburiy qoida sifatida keltirilgan.

Eng ohirgi talab sifatida arbitraj kelishuvi bajarib bo'lmaydigan bo'lmashligi lozim. [7] Bu talabdan ko'zlangan asosiy maqsad kelishuvdan ko'zlangan natijalarga erisha olishni ta'minlashdir.

Arbitraj kelishuvlarining tuzilishi va nizolarni arbitraj jarayonlari bilan hal etilishi arbitraj kelishuvi tuzuvchilar, arbitrorlar va milliy sudlar uchun ham ayrim oqibatlar tug'diradi. Bular ijobiy va salbiy oqibatlarga bo'linadi.

*Arbitraj kelishuvlarining ijobiy oqibatlari.* Fundamental tushunishlarga asosan, arbitraj jarayonlari faqatgina arbitraj kelishuvlari bilan boshlanadi. Kelishuvlar esa asosan qarama-qarshilikka asoslanadi, ya'ni bir-biridan boshqacha manfaatlarni ko'zlangan eng kamida ikki tomon. Aynan shuning oqibatida ikki tomon birgalikda harakat qilishi, arbitraj kelishuvlari va arbitraj jarayonlarining muvafaqqiyatli o'tishi uchun birgalikda harakat qiladilar. Natijada taraflar harakatining umumlashuvi, manfaatlarning yakdillashuviga erishiladi. Bu harakatlar oqibatida arbitraj kelishuvlarining muvafaqqiyatli tashkil etilishi bilan birga arbitraj qarorlarining bajarilishi osonlashadi. Bu esa o'z navbatida arbitraj jarayonlaridan keyingi qarorlarning ijrosi bosqichining muvafaqqiyatli bajarilishini ta'minlaydi.

Arbitraj jarayonlarining o'tkazilishida taraflarning hamkorlikka undalishi. Arbitraj

kelishuvlari har ikki tomonning manfaatini ko'zda tutadi. Taraflar kelishuv tuzishda erkin bo'lganliklari sababli arbitraj kelishuvlarini mumkin qadar o'zlari uchun manfaatli qilib tuzishga harakat qiladilar. Buning natijasi o'laroq, o'zlari foydalari uchun taraflar arbitraj o'tkazish jarayonlarida, misol uchun, arbitraj tribunalining tanlanishi, arbitrorlar haqlarining to'lanishi, arbitraj joylari va arbitraj amal qiladigan qonun manbaalarini tanlashda faol ishtirok etadilar.

Arbitraj kelishuvlarining tuzilishidagi asosiy sanalgan erk muxtoriyati (Party autonomy) bir tomondan ustunlik sanalsa, ikkinchi tomondan ma'suliyat ham hisoblanadi. Bu ma'suliyatni ayrim davlatlar o'zlarining qonunchiligida alohida ko'rsatib ham o'tganlar. English Arbitration Act 1996 ning 40 – moddasida quyidagicha majburiyat mavjud:

1. Taraflar arbitraj jarayonlarining munosib va kutilganidek o'tishi uchun barcha zarur yumushlarni bajarishlari lozim.
2. Taraflar tribunalning jarayonlar o'tkazishga doir har qanday buyruq va ko'rsatmalarini kechiktirishsiz bajarishlari lozim

Bular bir taraf ikkinchi taraf oldida ma'sulligi va ikki tarafning umumiy ko'zlangan maqsadlariga erishish uchun bir-birlariga bog'liq qilib qo'yilishini anglatadi. Ayni shu bog'liqlik arbitraj kelishuvlarining yana bir afzalligi hisoblanib, taraflarga arbitraj qarorlarini bajarishda insof bilan harakat qilish va belgilangan vaqt rejimida arbitraj qarorlarini bajarishga undaydi. Ko'p holatlarda tizimning kamchiligi uning ijro etilishi bilan bog'liq muammolarda namoyon bo'ladi. Arbitraj kelishuvlari ikki tomon manfaatlarni bir xilda ko'zlanganligi bois ham arbitraj qarorlarining ijrosi bilan bog'liq muammolar kam uchraydi.

*Arbitraj kelishuvlarining salbiy oqibatlari.* Arbitraj kelishuvlarining ijobiy



oqibatlari bilan birga salbiy oqibatlari ham mavjud. Avvalo, nizolarni arbitraj orqali hal etish uchun kelishuv mavjud bo'lganida, nizolarning sud orqali hal etish mumkin emasligi. Bu qoida ko'plab davlatlarning qonunchiligi va UNCITRAL Model Law ning 8-moddasida majburiy qoida sifatida keltirilgan. Taraflarning kelib chiqqan yoki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolari ularning kelishuvi bilan arbitraj orqali hal etilishga kelishilsa, ushbu nizolar faqatgina arbitraj orqali hal etilishi lozim.

Arbitraj kelishuvlari arbitrajning eksklyuzivligini [8, B. 18] nazarda tutadi. Nafaqat taraflar arbitraj kelishuvi mavjud bo'lganida nizolarni sudda ko'rishi mumkin emas, balki arbitrajdan boshqa nizolarni hal qilish vositalaridan foydalanmasligi zarur. Bu shuni anglatadiki, taraflar arbitraj jarayonlari o'tkazilishida parallel hech qanday boshqa nizolarni hal etish usullaridan foydalanmasligi zarur. Lekin bu salbiy ta'sir tomonlarga nizolarni hal etishning gibrid usullaridan foydalanishlariga to'siq yaratmaydi. Taraflar ikki tarafning roziligi bilan arbitraj kelishuvini

bekor qilishlari yoki arbitraj qarorlarini tan olmasdan, boshqa arbitraj institutlarida nizolarini ko'rishlari mumkin. Ammo faqat bir taraf arbitraj kelishuvini yoki arbitraj qarorlarini bekor qilishi mumkin emas, har qanday harakat ikki tarafdinlikka asoslanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, arbitraj kelishuvlari taraflarning mustaqil irodasi asosida o'zlarining avtonom huquqi realizatsiyasi sifatida yaratiladi. Taraflarning arbitraj uchun qo'ygan dastlabki va eng muhim qadami bo'lib hisoblanadi. Tabiatan, arbitraj kelishuvlari boshqa kelishuvlardan o'zida ko'proq protseduraga oid qoidalarni keltirganligi bilan farqlanib turadi. Shunga qaramay, bunday turdagi kelishuvlar ham, majburlashga asoslanmaslik, imkoniyatlarning tengligi, qonuniylik tamoyillariga asoslanib tuziladi. Ushbu kelishuv taraflarga arbitraj jarayonlari o'tkazilishi uchun garov bo'lib xizmat qiladi. Arbitraj kelishuvlarining tuzilishi erk muxtoriyati (Party autonomy) prinsipi doirasida taraflarning avtonom huquqlarining dastlabki realizatsiyasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Okezie Chukwumerije, Choice of Law in International Commercial Arbitration (Quorum Books, 1994) 30
2. Nadia Ramzy Salama, "Nature, extent, and Role of Parties' Autonomy in the making of International Commercial Arbitration Agreements" – Manchester School of Law, 2015, at 80.
3. English Arbitration Act 1996. First published 1996, Reprinted 2001.
4. S. Sterk, "Enforceability of Agreements to Arbitrate: An Examination of the Public Policy Defense", Cardozo Law Review at p. 482.
5. Alan Redfern and Martin Hunter, Redfern and Hunter on International Arbitration, (student edition, Oxford University Press, 2009) para 2.176.
6. Klaus Peter Berger, "Re-examining the Arbitration Agreement: Applicable Law – Consensus or Confusion?" EWCH 13.04.2011.
7. The New York Convention of 1958. First published 1958, Reprinted 2012.
8. J. Michaelson and G. Blanke, "Anti-Suit Injunctions and Recoverability of Legal Costs as Damages for Breach on An Arbitration Agreement" 7 (4) Arbitration 12, (2008)
9. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration 1985 with amendments as adopted in 2006.
10. ICC Rules of Arbitration